

Suzuvchi pontonlar

“Buxoro” neftni qayta ishlash zavodida Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti bilan hamkorlikda innovatsion ishlanma ishlab chiqarish jarayoni joriy etildi.

“Buxoro” neftni qayta ishlash zavodi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti qoshidagi “Kimyoviy Texnologiya” MChJ bilan hamkorlikda 7236 dona suzuvchi ponton ishlab chiqarish va korxonaga yetkazib berish ishlarini amalga oshirdi.



Suzib yuruvchi pontonlarning birinchi navbati zavodga keltirilgach, yong‘inni o‘chirish bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi va ijobiy natija ko‘rsatdi.

Joriy yilning 18-19-yanvar kunlari zavod va “Kimyoviy Texnologiya” MChJ mutaxassislari tomonidan 7236 dona suzuvchi pontonlar 55-VPSga muvaffaqiyatli yuklandi.



Ushbu yangi dizayndagi polietilentereftalat (PET) pontoni qabul qilish, tarqatish, saqlash va sig'implarda to'satdan paydo bo'lgan yong'inni o'chirish paytida neft mahsulotlari va gaz kondensatining bug'lanishi natijasida yengil uglevodorodlarning yo'qolishini bartaraf etishga mo'ljallangan.

Bunday ponton yong'in, portlashga qarshi maxsus ko'pik hosil qiluvchi eritma va inert gaz bilan to'ldiriladi (<http://www.academy.uz/uz/news/neft-va-gaz-konlarida-foydalanish-uchun-ot-ochirish-moslamalari>).

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti tomonidan rezervuarlar uchun modernizatsiya qilingan suzuvchi ponton ishlab chiqilgan va №SAP 01058 raqamli ishlab chiqarish namunasiga "Rezervuarlar uchun pontonli qurilma" mavzusida patent olingan.